

MATBUOT ANJUMANI

Savol-Javoblar

2026-yil 29-iyuldagi Markaziy bank Boshqaruv yig'ilishi yakunlari bo'yicha matbuot anjumanida jurnalistlarning asosiy stavka, inflyatsiya prognozlari, iqtisodiy o'sish sur'atlari va xalqaro pul o'tkazmalariga oid savollariga javoblar berildi.

SAVOL

Asosiy stavkani 14 foiz darajasida saqlab qolish to'g'risidagi qarorga qanday omillar ta'sir qildi?

JAVOB

Bu haqda ma'ruzada ham aytib o'tildi. Qaror qabul qilishda inflyatsiyaning joriy tendensiyalari, bazaviy inflyatsiya dinamikasi, inflyatsion kutilmalar va prognozlar asosiy omillar bo'lib xizmat qildi.

Inflyatsiya yil boshidan buyon pasayuvchi tendensiyada shakllanmoqda. Shu bilan birga, bazaviy inflyatsiya va inflyatsion kutilmalarda ham pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Biroq joriy inflyatsiya dinamikasida bir qator proinflyatsion xatarlar saqlanib qolmoqda.

Shu bilan birga, iqtisodiy faollikning yuqori sur'atlarda davom etayotgani va ishlab chiqarish tafovutining ijobiy darajada saqlanib qolayotgani pul-kredit sharoitlarining qat'iyligini davom ettirishni taqozo etmoqda.

Shularni inobatga olib, **bugungi Boshqaruv yig'ilishida asosiy stavkani 14 foiz darajasida saqlab qolish zarur, deb topildi.**

SAVOL

Bugungi Boshqaruv yig'ilishida asosiy stavkani pasaytirish masalasi ko'rib chiqildimi? Asosiy stavkani o'zgarishsiz qoldirishda qaysi omil eng hal qiluvchi bo'ldi? So'nggi press-relizlarda inflyatsiya prognozi 6,5 foiz darajasida saqlanib qoldi — stavkani pasaytirish uchun qanday shartlar yuzaga kelishi kerak?

JAVOB

Bugungi yig'ilishda asosan bitta taklif — asosiy stavkani amaldagi darajada saqlab qolish taklifi muhokama qilindi. Stavkani pasaytirish taklifi ko'rib chiqilmadi.

Buning sababi, yuqorida qayd etilganidek, kelgusi choraklarda proinflyatsion omillar va xatarlarning ustuvor bo'lib qolayotganidir. Xatarlar balansini inobatga olgan holda, asosiy stavkani pasaytirish taklifi ko'rib chiqilmadi.

Kelgusida stavkani pasaytirish imkoniyatiga ta'sir qiluvchi omillarga to'xtaladigan bo'lsak, birinchi navbatda, bazaviy inflyatsiya darajasini diqqat bilan kuzatib boramiz. Bazaviy inflyatsiya 5,7 foizni tashkil etdi va bu ko'rsatkich yil boshidan buyon deyarli o'zgarishsiz qolmoqda. Uning pasayish tendensiyasiga o'tishi juda muhim.

Ikkinchi muhim omil — inflyatsion kutilmalarning barqaror pasayib borishi. So'nggi oylarda inflyatsion kutilmalarda biroz pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda, biroq ular hali kutilgan darajada past emas.

SAVOL

Markaziy bank shu paytgacha asosiy stavkani 1 yoki 0,25 foiz bandga pasaytirgan. Xalqaro tajribada ham 0,25 foiz bandga pasaytirish amaliyoti mavjud — masalan, yaqinda Rossiya va Qozog'istonda. O'zbekistonda ham kichik qadamlar bilan o'zgartirish amaliyoti ko'rib chiqiladimi?

JAVOB

Yaxshi savol. **Odatda markaziy banklar joriy foiz stavkasi darajasi va makroiqtisodiy muhitdan kelib chiqib, asosiy stavkani qay darajada o'zgartirish masalasini ko'rib chiqadi.** So'nggi oylarda Rossiya va Qozog'istonda asosiy stavka 0,25 foiz bandga qisqartirildi — bu ushbu mamlakatlardagi joriy inflyatsiya dinamikasidan kelib chiqib qo'llanildi.

Umuman, jahon tajribasida asosiy stavkani o'zgartirish qadami turlicha belgilanadi. Agar inflyatsiya pasayayotgan sharoitda iqtisodiy faollik ham keskin sekinlashayotgan bo'lsa, stavkani kattaroq qadam bilan pasaytirish mumkin. Agar iqtisodiy faollik va inflyatsiyadagi pasayish mo'tadil kechayotgan bo'lsa, stavka kichikroq qadam bilan pasaytirilishi mumkin.

SAVOL

Yangilangan prognozlarga ko'ra, 2028-yilning ikkinchi choragidan boshlab inflyatsiya darajasi qisman oshishi kutilmoqda. Ayrim mutaxassislar Markaziy bank 5 foizlik targetga erishgunga qadar valyuta kursiga ta'sir ko'rsatayotgani haqida fikr bildirmoqda. Bunga munosabatingiz qanday?

JAVOB

Inflyatsiya prognozining kelgusi davrlarda biroz yuqorilashining asosiy sabablaridan biri — iyun oyida energiya narxlarining oshishi. Uning birlamchi ta'siri iyun oyining o'zida qayd etildi va qariyb 1 foizni tashkil etdi.

Kelgusida esa ushbu omilning ikkilamchi ta'sirlari yuzaga chiqadi: birinchidan, energiya narxlari oshishining inflyatsion kanallar orqali boshqa narxlarga o'tishi; ikkinchidan, ishlab chiqarish va tashish xarajatlarining oshishi orqali boshqa tovarlar narxiga ham oshiruvchi bosim yuzaga kelishi mumkin.

Almashuv kursiga to'xtaladigan bo'lsak, 2017-yildan boshlab erkin suzuvchi almashuv kursi rejimiga o'tilgan, o'tgan yili esa kursning erkin shakllanish darajasi yanada oshirildi. **Almashuv kursining muayyan darajasi modelga oldindan belgilangan ta'sir etuvchi omil sifatida kiritilmaydi.**

SAVOL

Yevropa Ittifoqi tomonidan "Zolotaya korona" operatorining sanksiyalar ro'yxatiga kiritilishi xorijdan kelayotgan pul o'tkazmalariga ta'sir qildimi? Asosiy stavkaning 14 foizda saqlab qolinishi ushbu sanksiyalar bilan bog'liqmi?

JAVOB

Sanksiyalarning 14-paketiga to'xtaladigan bo'lsak, bu omil bizning modelimizda to'g'ridan-to'g'ri inobatga olinmagan, chunki uning mamlakatimizdagi iste'mol tovarlari narxlariga ta'siri katta emas.

Joriy yilning birinchi yarim yilligida mamlakatimizga 9,3 milliard AQSH dollari miqdorida xalqaro pul o'tkazmalari kelib tushdi — bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13 foizlik o'sishni anglatadi. Shu jumladan, "Zolotaya korona" tizimi orqali 2,4 milliard AQSH dollari o'tkazma amalga oshirilgan.

“Zolotaya korona” orqali kelib tushayotgan mablagʻlar faqat Rossiyadan yuborilmaydi — Koreya Respublikasi, Turkiya, Qozogʻiston, Yevropa Ittifoqi davlatlari va boshqa mamlakatlarda mehnat faoliyatini olib borayotgan fuqarolarimiz hamda oʻzbek diasporasi vakillari tomonidan yuborilgan mablagʻlar ham mamlakatimizga kelib tushadi.

Sanksiyalar “Zolotaya korona” tizimining oʻziga emas, balki uning korrespondent bankiga qoʻllanilgan. Mamlakatimiz tijorat banklari “Zolotaya korona” rahbariyati bilan kelishgan holda texnik operatorni sanksiyalar taʼsiriga tushmagan boshqa bankka oʻtkazish boʻyicha muzokaralar olib bormoqda; kelasi haftadan yangi operator orqali ish boshlanishi kutilmoqda.

Umuman olganda, mazkur vaziyatning Oʻzbekistonga toʻgʻridan-toʻgʻri taʼsiri sezilarli emas. Shu bilan birga, masalani qisqa muddatlarda toʻliq hal etish maqsadida Markaziy bank va tijorat banklari tomonidan barcha zarur choralar koʻrilmogʻda.

SAVOL

Energiya tariflari oshirilishining ikkilamchi taʼsiri inflyatsiyaga taʼsir qilishi mumkinligini taʼkidladingiz. Aynan qaysi tovarlar va xizmatlar narxlarida ushbu taʼsir kuchliroq kuzatilishi mumkin?

JAVOB

Ikkilamchi taʼsir, odatda, keng qamrovli boʻladi. Shu sababli uning aynan qaysi tovarlar va xizmatlarda qay darajada namoyon boʻlishini oldindan aniq aytish mushkul.

Asosiy taʼsir yoʻnalishlaridan biri — transport va logistika xarajatlari. Birinchi navbatda, yoqilgʻi narxlari orqali boshqa tovar va xizmatlar narxlariga taʼsir oʻtishi mumkin. Xatarlar aynan shu yoʻnalishlarni hisobga olgan holda baholangan.

SAVOL

Ipoteka kreditlari hajmi ortib bormoqda. Asosiy stavkaning oʻzgarishi ipoteka kreditlari bozoriga qanday taʼsir koʻrsatadi?

JAVOB

2026-yilning yanvar–iyul oylarida ipoteka kreditlari hajmi oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 37 foizga oshgan. Oʻtgan yilda maʼlum darajada sekinlashuv kuzatilgan boʻlsa, joriy yilda faollashuv qayd etilmoqda.

Shu bilan birga, **asosiy stavkaning oʻzgarishi ipoteka kreditlariga bevosita hal qiluvchi taʼsir koʻrsatmaydi.** Asosiy stavka, avvalo, iqtisodiyotdagi umumiy kreditlash surʼatlariga taʼsir koʻrsatadi; ipoteka kreditlari bozoridagi oʻzgarishlar esa bir qator boshqa omillar bilan ham belgilanadi.

Joriy yilning iyun oyi holatiga koʻra, jami ichki iqtisodiy faollik 12,9 foizga oshgan. Uchinchi chorakdan boshlab esa iqtisodiy faollikning yanada muvozanatlashuvi kuzatilmoqda.

SAVOL

Inflyatsiyani pasaytirishda pul-kredit siyosatidan tashqari yanada kuchliroq taʼsir koʻrsatayotgan omillar mavjudmi? Markaziy bank ushbu omillarni qay darajada nazorat qila oladi?

JAVOB

Birinchi navbatda, **pul-kredit siyosatining qatʼiyligi eng muhim omillardan biri hisoblanadi.** Pul-kredit sharoitlarining qatʼiylilik darajasini saqlab kelayotganimiz inflyatsiyaning pasayishiga xizmat qilmoqda.

Keyingi muhim omil — almashuv kursi. Almashuv kursining mustahkamlanishi ham inflyatsiyaga sezilarli pasaytiruvchi ta'sir ko'rsatmoqda.

Boshqa omillarga to'xtaladigan bo'lsak, joriy yilda inflyatsiyaning pasayishiga sezilarli hissa qo'shgan omillardan biri — energiya narxlarini erkinlashtirish bilan bog'liq yuqori baza effektining chiqib ketishi. Bu omil netto hisobda qariyb 0,6 foiz band pasaytiruvchi ta'sir ko'rsatdi.

Bundan tashqari, Markaziy bank va Hukumat tomonidan taklifni oshirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda — masalan, yil boshida go'sht importi bo'yicha subsidiyalash va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari taklifini oshirish bo'yicha qarorlar qabul qilindi.

SAVOL

2026-yilning birinchi yarim yilligida YaIM 8,5 foizga o'sdi. Davlat rahbari 9–10 foiz sur'atlarda o'sish zarurligini ta'kidlagan edi. Qat'iy pul-kredit siyosati yuritilayotgan sharoitda bunday yuqori o'sishga erishish qay darajada mumkin?

JAVOB

O'zbekiston iqtisodiyotining joriy holatidan kelib chiqadigan bo'lsak, **9–10 foizlik iqtisodiy o'sish qandaydir anomal yoki erishish mushkul bo'lgan daraja emas — bu erishish mumkin bo'lgan o'sish sur'ati hisoblanadi.**

So'nggi tendensiyalarga qaraydigan bo'lsak, iqtisodiy o'sish tezlashmoqda va bu jarayon inflyatsiyaning pasayishi bilan bir vaqtda kechmoqda. Bu, eng avvalo, iqtisodiyotning potensial o'sish darajasi oshib borayotganidan dalolat beradi. Ya'ni iqtisodiyotning potentsiali kengayishi hisobiga yuqori iqtisodiy o'sish ta'minlansa, bu inflyatsiyaga salbiy bosim keltirib chiqarmaydi.

Shu sababli o'rta muddatli istiqboldagi eng muhim vazifa — iqtisodiyotning potensial o'sish darajasini oshirish: investitsiyalarning samaradorligini ta'minlash, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda taklif omillarini qo'llab-quvvatlash zarur.

Ikkinchi muhim yo'nalish — mehnat unumdorligini oshirish. **Iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish va mehnat unumdorligini oshirish** orqali yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan past inflyatsiyani bir vaqtda ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

SAVOL

Markaziy bank tahlillariga ko'ra, iqtisodiyotning o'sish salohiyati 7–8 foiz atrofida baholanmoqda, Iqtisodiyot va moliya vazirligi esa 8,1 foizni kutmoqda. Bu inflyatsiya dinamikasiga qanday ta'sir qiladi? Budjet stimulining roli qanday, va pul-kredit hamda fiskal siyosat bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishda ishlamayaptimi?

JAVOB

Birinchidan, potensial o'sish darajasiga to'xtaladigan bo'lsak — biz iqtisodiyotning potensial o'sish darajasini 7–8 foiz emas, **6–7 foiz** atrofida baholaganmiz. Mazkur baho 2025-yil yakunlari bo'yicha ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.

Joriy yilning birinchi choragida iqtisodiy o'sish 8,7 foizni, birinchi yarim yillik yakunlari bo'yicha esa 8,5 foizni tashkil etdi. Yil yakunida, bizning prognozimizga ko'ra, iqtisodiy o'sish 7,5–8 foiz atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Joriy vaziyatga to'xtaladigan bo'lsam: **yalpi talab juda faol va yilning ikkinchi yarmida ham bu faollik davom etishi kutilmoqda.** Bunga iste'mol talabining yuqoriligi, fiskal xarajatlarning oshirish tomonga qayta ko'rib chiqilishi va eksportning o'sishi ta'sir qilmoqda. Hozirgi qat'iy

sharoitlarni saqlab qolishning asosiy sabablaridan biri esa **yalpi talabning yuqoriligicha qolayotganidir.**

Budjet xarajatlariga kelsak, bu masala Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda o'rganib boriladi. Fiskal strategiyada xarajatlarning oshishi, asosan, infratuzilma dasturlarini jadallashtirish va investitsiyalarni ko'paytirishga yo'naltirilgan. Bunday xarajatlar qisqa muddatda talab va inflyatsiyaga ma'lum darajada bosim shakllantirishi mumkin bo'lsa-da, kelgusida ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi orqali inflyatsion bosimning kamayishiga xizmat qiladi.

“Yalpi talab juda faol va yilning ikkinchi yarmida ham bu faollik davom etishi kutilmoqda.”

JORIY MAKROIQTISODIY VAZIYAT

SAVOL

Yil yakunida iqtisodiy o'sish 8 foiz atrofida bo'lishi kutilayotgan ekan, Markaziy bank buni iqtisodiyotning “qizib ketishi” sifatida baholamayaptimi?

JAVOB

Avvalo, iqtisodiyotning “qizib ketishi” nimani anglatishiga qisqacha to'xtalib o'tsak. Iqtisodiy potensial — bu iqtisodiyotning mavjud imkoniyatlari doirasidagi o'sish darajasi. Agar iqtisodiy o'sish ushbu potensial darajadan yuqori shakllansa, bu iqtisodiyotda “qizib ketish” alomatlari mavjudligini anglatadi.

Biz buni pul-kredit siyosati sharhlarida ham muntazam tushuntirib boramiz. So'nggi choraklarda iqtisodiy o'sish o'z potensialidan yuqori darajada shakllanmoqda. **Bu esa iqtisodiyotda qizib ketish alomatlari mavjudligini ko'rsatadi.**